

MILLATLARARO TOTUVLIK DINLARARO BAG'RIKENGLIK-YUKSALISH  
POYDEVORI

UDK:323/327(091)(575).1

Karimova Sadoqat Tohirovna

Toshkent Menejment va iqtisodiyot Instituti,  
"Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrası dotsenti

[sadoshkarimova96@gmail.com](mailto:sadoshkarimova96@gmail.com)

**АННОТАЦИЯ:** В данной статье раскрывается, что в центре проводимых в нашей стране масштабных реформ находится цель обеспечения интересов людей, их прав и свобод.

**Ключевые слова:** религиозная толерантность, толерантность, межнациональные отношения, международный центр.

**ANNOTATION:** This article reveals that at the center of the large-scale reforms being carried out in our country is the goal of ensuring the interests of people, their rights and freedoms.

**Key words:** religious tolerance, tolerance, interethnic relations, international center.

**ANNOTATSIYA:** Mazkur maqolada mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar markazida ekanligi, inson manfaati, uning huquq va erkinliklarini ta'minlash maqsadi turishi ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** diniy bag'rikenglik, tolerantlik, millatlararo munosabatlar, baynalmilal markaz

**KIRISH.** Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar markazida, avvalo, inson manfaati, uning huquq va erkinliklarini ta'minlash maqsadi turadi. Fuqarolar manfaatlarini faqatgina tinchlik va osoyishtalik, o'zaro hurmat, mehr-oqibat va hamjihatlik muhitini yaratish orqali ta'minlash mumkin. O'zbekistonda aholining ko'p millatli bo'lishiga ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning qulay omili sifatida qaralmoqda. Ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni saqlash, dinlararo va millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirish hisobiga xalqaro maydonda O'zbekistonning obro'si oshib bormoqda. Xususan, mamlakatimizdagi davlat ta'lim muassasalarida o'qitish etti tilda olib boriladi. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi o'z ko'rsatuvlarini o'n ikki tilda namoyish etmoqda, o'ndan ortiq tilda gazeta va jurnallar nashr etilmoqda. Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi qoshida 138 ta milliy madaniy markaz, bundan tashqari, 16 ta konfessiyaga tegishli 2300 ga yaqin diniy tashkilot faoliyat yuritadi. Bu borada yaxlit, chuqur o'ylangan siyosat va uni amalga oshirishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar hayotga tatbiq etilib, millatlararo va dinlararo totuvlikni qo'llab-quvvatlashga e'tibor qaratilmoqda. Bu islohot va o'zgarishlarning negizida konstitutsion huquq va kafolatlar yotganini alohida qayd etish lozim.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.** Shundan kelib chiqib, bu borada quyidagi dalillarni keltirib o'tish zarur. Birinchidan, turli millat va din vakillarining o'z salohiyatini to'laqonli amalga oshirish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun konstitutsiyaviy kafolatlar belgilangan. Bunda, eng avvalo, fuqarolarning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, teng huquq va erkinliklarini, ularning qonun oldida tengligini ta'minlash alohida e'tiborga olingan. Mazkur sohada O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatining asosiy tamoyillari sirasiga fuqarolarning teng huquqliligi, ijtimoiy adolat, qonun ustuvorligi, millat va elatlarning madaniy, til va diniy qadriyatlarini, an'ana va urf-odatlarini o'zaro hurmat qilish kiradi. Konstitutsiyaviy kafolatlar jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, fuqarolarga jamoat va davlat qurilishida ishtirok etishni ta'minlaydi. Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasining

millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni o'rnatish siyosati Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va boshqa xalqaro huquqiy-me'yoriy hujjatlarga to'la mos keladi.

Ikkinchidan, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash O'zbekistonning zamonaviy davlat sifatida rivojlanish strategiyasining ajralmas qismi hisoblanadi. Mamlakatimizda 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq, mazkur sohaga alohida e'tibor qaratilmoqda. So'nggi to'rt yilda millatlararo munosabatlar va din sohasida 50 dan ortiq qonun hujjatlari va 40 ga yaqin qarorlar qabul qilindi. Bu huquqiy hujjatlarning aksariyati fuqarolarning dini va millatidan qat'i nazar, huquq va erkinliklarini kengaytirish, shu jumladan, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish imkoniyatini oshirishga qaratilgan. Masalan, diniy tashkilot faoliyatini tugatish to'g'risida qaror qabul qilish vakolatlari ijro hokimiyati — adliya organlaridan sudlarga o'tkazilib, ularning faoliyati erkinligining huquqiy kafolatlari mustahkamlandi. [1] Diniy tashkilotni ro'yxatdan o'tkazish uchun davlat boji miqdori besh baravarga kamaytirildi, hisobotlarni taqdim etish davriyligi qisqartirildi. Bundan buyon diniy tashkilotlar faqat yilda bir marta hisobot taqdim etadi. Shuningdek, 2019 yilda millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati kontsepsiyasi tasdiqlandi. SHU bilan birga, diniy-ma'rifiy soha faoliyatini takomillashtirish bo'yicha bir qancha qarorlar qabul qilinib, unga ko'ra, mazkur sohada yagona davlat siyosatini amalga oshirish, fuqarolarning vijdon erkinligi kafolatlarini himoya qilish, turli millat va elatlar vakillari o'rtasida konstruktiv va o'zaro hurmatga asoslangan munosabatlarni shakllantirish bo'yicha yangi tizim joriy etildi. Xususan, Vazirlar Mahkamasi huzurida millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi tashkil etildi, Din ishlari bo'yicha qo'mita faoliyati takomillashtirildi.

Uchinchidan, Harakatlar strategiyasi doirasida mamlakatimizda millatlararo va konfessiyalararo muloqotni rivojlantirish borasida institutsional yondashuv yo'lga qo'yildi. Jumladan, Prezidentimizning 2018 yil 16 apreldagi “O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qaroriga muvofiq, Din ishlari bo'yicha qo'mita huzuridagi Konfessiya ishlari bo'yicha kengashning yangi tarkibi tasdiqlandi. Kengash tarkibi 9 nafardan 17 nafar a'zoga — O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan diniy konfessiyalar vakillari hisobiga kengaydi. e'tiborli jihati, kengash a'zolariga a'zolari oz sonli diniy tashkilotlarning rahbarlari ham kiritildi. Jamoatchilik maslahatlashuv organi hisoblangan mazkur kengashning asosiy maqsadi O'zbekistondagi mavjud diniy-ijtimoiy jarayonlarni muhokama qilish hamda tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasining asosiy vazifalari qatoriga davlat organlarining respublika hududida joylashgan milliy madaniy markazlar va do'stlik jamiyatlari bilan o'zaro aloqasi va hamkorligini ta'minlash va yanada rivojlantirish kiritildi. Qo'mita qoshida fuqarolarning etnomadaniy talablarini o'rganish, aniqlash va qanoatlantirishga, millatlararo munosabatlarni mustahkamlashga, milliy sabablarga ko'ra, ehtimoliy mojarolarning oldini olishga ko'maklashuvchi Jamoatchilik kengashi tuzildi. Bundan kutilayotgan asosiy natija — mazkur sohada davlat siyosatini amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirishdir.

Mamlakatimiz hududida yashayotgan millatlar urf-odati hamda islom dinining madaniy va tsivilizatsion merosi, ma'naviy-falsafiy ahamiyatini chuqur o'rganish bo'yicha ishlar sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad — fundamental ilmiy

tadqiqotlar natijalari asosida diniy bag'rikenglik, millatlararo munosabatlarning tarixiy ildizlarini chuqur o'rganish va uni bugungi kun sharoitida rivojlantirishdan iborat. Bu borada Islom tsivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy va Imom Moturidiy nomidagi xalqaro tadqiqot markazlari tashkil etildi. Shu bilan birga, tegishli oliy ta'lim muassasalarida sifatli diniy ta'lim olish imkoniyati kengaymoqda. O'rta, oliy diniy ta'lim, magistratura, boshlang'ich doktorantura va doktoranturani o'z ichiga olgan diniy ta'limning besh bosqichli tizimi shakllantirildi. Islomiy ta'lim muassasalariga talabalarni qabul qilish kvotasi ikki baravar oshirildi. SHuningdek, Toshkent pravoslav seminariyasi va Toshkent Xristian seminariyasi o'quv dargohlari ham o'z faoliyatini davom ettirmoqda.

To'rtinchidan, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatida muhim o'rin egallay boshladi. Hukumat xalqaro tashkilotlar hamda ushbu sohada mutaxassislar bilan konstruktiv muloqot va hamkorlik o'rnatishga alohida e'tibor qaratmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari Zeyd Raad Al-Huseyn hamda Evropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Milliy ozchiliklar bo'yicha Oliy komissari Lamberto Zanierning mamlakatimizga tashrifi chog'ida mazkur sohada olib borilayotgan islohotlar muhokama qilindi va xalqaro mutaxassislar tomonidan bu boradagi o'zgarishlarga yuqori baho berildi. E'tiborli jihati, 2017 yilda mustaqil O'zbekiston tarixida ilk bora mamlakatimizga BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining din va e'tiqod erkinligi bo'yicha maxsus ma'ruzachisi Ahmad SHahid tashrif buyurdi. Uning tavsiyalari asosida 2018 yil 4 may kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi din va e'tiqod erkinligini ta'minlash bo'yicha "Yo'l xaritasi" tasdiqlandi. Umuman olganda, xalqaro hamjamiyat mamlakatimizning millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash borasidagi faoliyatini yuqori baholamoqda va O'zbekiston tajribasiga katta qiziqish bilan qaramoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan 2017 yil 19 sentyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida [2] bag'rikenglik va o'zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinlikni ta'minlash, e'tiqod qiluvchilarning huquqini himoya qilish, ularning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslikka ko'maklashishga qaratilgan "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish taklif etilishi va ushbu hujjatning 2018 yil 12 dekabrda qabul qilinishi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Mazkur sohada olib borilgan islohotlar doirasida erishilgan muhim natijalardan biri sifatida 2018 yilda AQSH Davlat departamenti O'zbekistonni diniy erkinlik borasida "alohida tashvish uyg'otuvchi mamlakatlar" ro'yxatidan chiqarganini ko'rsatish mumkin. E'tiborli jihati, 2020 yil 13 oktyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi sessiyasida bo'lib o'tgan saylovlarda O'zbekiston milliy davlatchiligimiz tarixida ilk bor Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo'yicha kengashi a'zoligiga uch yil muddatga — 2021-2023 yillarga saylandi. Mamlakatimiz uchun Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo 193 davlatdan 169 tasi ovoz berdi. Bu saylovda eng ko'p ovoz berilgan davlat O'zbekiston bo'ldi. Bu ham yurtimizda millati va dinidan qat'iy nazar, inson huquqlarini ta'minlashga qaratilgan, shu jumladan, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik sohasida olib borilayotgan siyosatning e'tirofi desak, mublag'a bo'lmaydi.

Bularning barchasi O'zbekistonning xalqaro munosabatlarda ishonchli va mas'uliyatli sub'ekt sifatidagi roli mustahkamlanayotganidan dalolat beradi. Mamlakatimizda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik sohasida ijobiy va o'zaro hurmatga asoslangan muhitni mustahkamlash borasida olib borilayotgan islohotlar natijasida millatlararo va dinlararo munosabatlarning yangi modeli yaratildi. Ushbu model turli millat va din vakillari o'rtasidagi millatlararo va dinlararo muloqot, konstruktiv yondashuv va barcha fuqarolarning qonun oldida

tengligiga asoslanadi. Shu ma'noda, so'nggi yillarda O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va din sohasida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar mamlakatda ushbu sohalarida yangicha yondashuv va strategik maqsadni birlashtirgan tizim shakllanishiga xizmat qildi. Mazkur tizimning muvaffaqiyati esa yurtimizda tinchlikni saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, barqaror rivojlanish uchun zamin yaratmoqda. Zero, zamonaviy davlatning bosh maqsadi jamiyatda hamjihatlik va barqarorlik, inson huquq va erkinliklarining samarali himoya qilinishini ta'minlashdan iborat. Bu borada Asosiy qonunimiz — Konstitutsiya nafaqat jamiyat va davlat taraqqiyotini belgilovchi oliy darajadagi siyosiy-huquqiy xujjat, balki mamlakatimizda yashovchi har bir fuqaroning munosib turmush tarzini kafolatlovchi muhim asosdir.

**NATIJALAR.** Insoniyat yaralibdiki, tinch, baxtli, saodatli yashashga intiladi. Lekin bu intilish ochko'zlik, hasad, hudbinlik kabi illatlar tufayli ba'zilarga orzuligicha qolib kelmoqda. Turli urush va janjallar oqibatida esa inson ana shunday baxtdan bebahra qolmoqda. Bo'lib o'tayotgan to'qnashuvlarning asosiy sababi hudud talashish, boylik orttirish uchun bo'lsa, yana aksarining sababi diniy kelishmovchiliklardir. Ana shunday mojarolarning oldini olish uchun esa insoniyat diniy bag'rikenglik g'oyasi ostida birlashishi zarur. O'zbekiston azaldan turli millatga mansub, turli dinlarga e'tiqod qiluvchi xalqlar tinch-totuv yashagan o'lka bo'lib kelgan. Ajdodlarimiz boshqa din vakillariga doimo hurmat bilan munosabatda bo'lgani, Vatan taraqqiyoti yo'lida yelkadosh bo'lib mehnat qilgani tarixiy manbalarda ko'p qayd etilgan.

Hozirgi kunda O'zbekiston aholisining soni 33.5 mln.dan oshgan bo'lib, fuqarolarning 94% dan ziyodi islom diniga e'tiqod qiladi. 3,5% ga yaqin fuqarolar pravoslav diniga mansub bo'lib, qolganlarini boshqa konfessiya vakillarini tashkil etadi. Hech shubhasiz, yurtimizda turli sohalarida erishilayotgan barcha ulkan yutuqlarimizning zamirida jamiyatimizda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalik hisoblanadi. Ushbu holat davlatning katta yoki kichikligi, dini va millatidan qat'iy nazar, tinchlik va barqarorlik naqadar aziz ne'mat ekanini yana bir bor isbotlab bermoqda.

So'nggi yillarda aqidaparast oqimlar yoshlar ichidagi faoliyatini mehnat migrantlarini ta'sir doirasiga olish, "hujralar" tashkil etish, diniy ekstremistik mazmundagi materiallarni elektron ko'rinishda tarqatish, internet orqali targ'ibot o'tkazish kabi usullarda amalga oshirmoqda. Ayniqsa, internet tarmog'ida turli nomlar bilan chiqib, fuqarolarga tahdid qilayotganlar ham yo'q emas. Ta'kidlash zarur, diniy ekstremizmga qarshi kurashish har bir insonning o'zida bo'lishi shart. Turli internet tarmog'i orqali e'lon qilinadigan yot g'oyalarga qarshi kurashish hamda ezgulik sari qadam tashlab insonning tafakkurini boyitishda xizmat qiladi. Afsuski, ba'zan insonlar noto'g'ri targ'ibot sabab o'z ishini real hayotga yaqinlashtirib, yot g'oyalarni tarqatuvchi tashkilotlarni islomiy davlat barpo etgan holda dunyoda adolat o'rnatishni maqsad qilgan tashkilot deb hisoblaydi. Bunday fikrlovchilar Markaziy Osiyoda, xususan, O'zbekistonda ham bor ekani hech kimga sir emas. Bu kabi yoshlar insonlarga qarshi sodir etilayotgan jinoyatlarni go'yoki xalifalik qurish uchun joiz amal hisoblab qattiq adashmoqdalar. Aslida, mutaassib oqim a'zolarining maqsadlari yoshlarimizni oilasi va yaqinlarining ta'siridan chiqarish, o'qish yoki ishidan ajratib olishdir.

Diniy ekstremizm nima o'zi? Diniy ekstremizm – ba'zi diniy tashkilotlar yoki ayrim dindorlarning jamiyat qonun-qoidalariga mos kelmaydigan mafkurasi va faoliyatidir. Diniy ekstremizm ko'pchilik dinlarda mavjud bo'lib, uning tarafdorlari o'z oldiga siyosiy maqsadlarni qo'yadi.



Mamlakat va jamiyat xavfsizligi azaldan davlatning asosiy masalalaridan bo'lib kelgan. Ayniqsa, yurtimiz mustaqillika erishgach, xavfsizlikni ta'minlash vazifasi dolzarb ahamiyat kasb etib bordi. Chunki dunyo maydonida terrorizm va diniy aqidaparastlik oqimi, buyuk davlat shovinizmi kabi yovuz niyatni ko'zlovchi oqimlar o'zga davlatlarning rivojlanishiga tahdid solish va bu orqali dunyoga hukmronlikka erishishga intilmoqda. Jahon miqyosida inson ongi va qalbi uchun kurash shiddat bilan davom etmoqda. Ta'kidlab o'tish lozim, bugun mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham xatarli. Chunki mafkura poligonlari bu inson ongidir. Unda sinash uchun quyilgan g'oya agar qalbdan joy olsa, insonni ma'lum maqsad yo'lida harakatga keltiradi. O'ta globallashgan fan-texnika asrida inson ongi va qalbi sinovdan o'tkazilmoqda. Inson ongiga aqidaparast kuchlar yot g'oyalarni quyishga va bu bilan ma'lum mamlakatlarning ichida siyosiy tarqoqlik, boshboshdoqlikni keltirib chiqarishga va shu bilan hokimiyat tepasiga kelishga intilmoqdalar. Xuddi shu kabi bizning ozod va obod vatanimizning tinchligi, osoyishtaligini ko'rolmayotgan ba'zi kuchlar mamlakatimizning barqarorligiga raxna solishga intilayotirlar. Inson doim tinchlik qadriga yetib, salbiy kuchlarga qarshi kurashishi lozim. Shunday ekan, biz bunday holga aslo loqaydlik bilan munosabatda bo'lmasligimiz, chuqur bilim va malaka bilan vaziyatni oqilona baholashimiz va qaror qabul qilishimiz, xavfsizlikni ta'minlash chora-tadbirlarini yuqori darajada amalga oshirish darkor deb o'ylaymiz. Biz din bundan buyon ham aholini eng oliy ruhiy, axloqiy va ma'naviy qadriyatlardan, tarixiy va madaniy merosdan bahramand qilishi tarafdorimiz. Lekin hech qachon diniy da'vatlar hokimiyat uchun kurashga, siyosat, iqtisodiyot va qonunshunoslikka aralashish uchun bayroq bo'lishiga yo'l qo'ymasligimiz shart. Chunki bu holni davlatimizning xavfsizligi, barqarorligi uchun jiddiy xavf-xatar deb hisoblaymiz.

Diniy ekstremizm – jamiyat uchun an'anaviy bo'lgan diniy qadriyatlar va aqidalarni rad etish, ularga zid bo'lgan g'oyalarni aldov va zo'rlik bilan targ'ib qilishga asoslangan nazariya va amaliyotni anglatadi. Ekstremizm va terrorizm bir-biri bilan bog'liq bo'lgan yagona jarayonning birin-ketin rivojlanadigan bosqichlaridir. Diniy-ekstremizm kelib chiqishining birinchi va asosiy sababi mutaassib fikr va qarashlarning paydo bo'lishidir. Mutaassiblik muayyan g'oyalarning to'g'ri ekaniga qattiq ishonish, ularga mukkasidan ketish, “o'zgalar” va “o'zgacha” qarash va g'oyalarga murosasiz munosabatda bo'lish, boshqa firqa va mazhablarni butunlay rad etgan holda, ularni tan olmaslikda namoyon bo'ladi. Mutaassiblik barcha davrlarda turli din va yo'nalishlar orasida keskin nizo va to'qnashuvlar kelib chiqishiga sabab bo'lgan. Ayni paytda, dunyoviy va diniy bilimlarning sayozligi, sof diniy tushunchalarning asl mazmunini bilmaslik ham diniy ekstremistik g'oyalarning tarqalishiga sabab bo'lishi mumkin. Yuqorida qayd etilganidek, diniy ekstremistik tashkilotlarning aksariyati o'z nomini muqaddas islom dini bilan bog'lashga urinadi. Ular o'zlarini “najot topgan guruh”, qolgan musulmonlarni esa kofir deb hisoblaydilar.

**MUHOKAMA.** Ta'kidlash lozim, “Islom” so'zining lug'aviy ma'nolaridan biri “tinchlik” bo'lib, u hech qachon buzg'unchilikka, qotillikka undamagan va undamaydi ham. Zamonaviy terrorchilar esa buzg'unchilik va qotillik, odamlarni dahshatga solishni o'zlarining maslaklariga aylantirib olganlar. Oxirgi paytlarda dunyoning ko'plab mintaqalarini qamrab olgan terrorizm va ekstremizm bilan bog'liq muammolar faol muhokama qilinmoqda. Terrorizm va diniy-ekstremizmga qarshi kurash Markaziy Osiyo mintaqasi, xususan, O'zbekiston uchun ham dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda diniy-ekstremistik, terroristik guruhlar faoliyatida muhim o'zgarishlar kuzatilmoqda. O'zbekiston va boshqa davlatlarda diniy-ekstremistik, terroristik harakatlarga nisbatan olib borilayotgan murosasiz yondashuv natijasida guruh a'zolari o'z harakatlarini ochiq namoyon etishni ma'qul ko'rmay, aksincha, xufyona targ'ibot-tashviqot ishlari orqali, jumladan, internet orqali o'z g'oyalarni tarqatish bilan faoliyatlarini

jadallashtirishmoqdalar. G'oyaviy jihatdan milliy manfaatlarga zid bo'lgan diniy mazmundagi mahsulotlarni respublika hududiga olib kirish va tarqatishga urinish holatlari O'zbekistonda ham kuzatilmoqda. Bu kabi ekstremistik ruhdagi mahsulotlarni internet va boshqa yo'llar orqali tarqatilishi aholi tomonidan dinning noto'g'ri talqin etilishiga, kam ma'lumotga ega o'quvchilar ma'naviy ongining buzilishiga, turli e'tiqod va qarashlarga ega bo'lgan odamlar, xususan yoshlar orasida adovat va xusumat uyg'onishiga zamin yaratmoqda. Shunday ekan, har bir inson bunday salbiy illatlarga qarshi kurashishi shart.

Tilimizda tolerantlik atamasini ham ishlatamiz. Tolerantlik nima? Tolerantlik lotincha so'zdan olingan bo'lib, sabr-toqat, bag'rikenglik, o'zgalarning turmush tarzi, fikr-mulohazalari, g'oya va e'tiqodlariga nisbatan toqatli bo'lish, degan ma'noni ifodalaydi. Hozirgi dunyoda tolerantlik o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyotning globallashuvi va yanada mobillashuvi, kommunikatsiyalarning tez rivojlanishi, integratsiya va o'zaro bag'rikenglik, keng miqyosli migratsiya va aholining ko'chib yurishi, boshqa jamiyatda ushbu tamoyilning ahamiyatini kuchaytiradi. Bag'rikenglik tamoyili aqidabozlikdan, haqiqatni mutlaqlashtirishdan voz kechishni anglatadi va inson huquqlari sohasidagi xalqaro huquqiy hujjatlarda belgilangan qoidalarni tasdiqlaydi. Bu tamoyilga ko'ra, har kim o'z e'tiqodiga amal qilishda erkindir va har kim bu huquqqa boshqalar ham ega ekanligini tan olmog'i lozim. Bir kishining qarashlari boshqalarga majburan singdirilishi mumkin emas. Tolerantlikni alohida shaxslar, guruhlar va davlatlar namoyon qilishi lozim. Jamiyatda turli xalqlar, millatlar va dinlarning o'ziga xos xususiyatlariga nisbatan tolerantlik munosabatini yurtimiz misolida ko'rish mumkin. Mamlakatimizda turli toifadagi odamlar, siyosiy kuchlar va partiyalar o'rtasidagi hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik tamoyili ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim omillaridan

biridir. Shuni aytish lozimki, mamlakatimizning tinchligi qadriga yetib, turli salbiy illatlarga, xususan, diniy ekstremizm, terrorizmga qarshi kurashish har bir fuqaroning insoniy burchi hisoblanadi. Bunga esa faqat o'zida kuch topa olishi, sabr va toqat bilan yengishi mumkin. Buning debochasi o'laroq yurtimizda Bag'rikenglik tamoyillari deklaratsiyasiga qo'shildi.

YUNESKO Bosh Konferensiyasining 1995-yil 16-noyabrdagi 28-sessiyasida qabul qilingan Bag'rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi dunyoda tinchlik va totuvlikni ta'minlash, inson huquqlari va erkinliklari ustuvorligini kafolatlash, teng huquqlilik hamda o'zaro hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish yo'lidagi muhim qadam bo'lib xizmat qilmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining qaroriga ko'ra, 1997-yildan buyon mazkur hujjat qabul qilingan sana, 16-noyabr – har yili butun dunyoda “Xalqaro bag'rikenglik kuni” sifatida nishonlab kelinadi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad dunyo xalqlarini bag'rikenglikka, tinchlikni asrab-avaylashga hamda ijtimoiy-iqtisodiy farovonlikka erishishga chorlashdir. Ushbu sanani O'zbekistonda nishonlash ham yaxshi an'anaga aylangan. O'zbekiston – ko'pmillatli mamlakat. Zero, shu aziz Vatan – barchamizniki. Bu zaminda asrlar mobaynida turli millat va elat vakillari qo'lni-qo'lga berib, yelkama-yelka yashab kelmoqda. Yurtimizda millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik muhiti hukmron. Xalqimiz odamiylik, insonni qadrlash, mehr-oqibat, bag'rikenglik kabi ezgu fazilatlarini ko'z qorachig'idek asrab-avaylab, necha-necha avlodlarga bezavol yetkazib kelmoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda mamlakatimiz hayotining barcha sohalarida izchil amalga oshirilayotgan keng ko'lamlil islohotlar xalq hayotini, dunyoqarashini, turmush tarzini o'zgartirmoqda.

Jamiyatimizda “**Yangi O'zbekistonni birgalikda quramiz**” degan yuksak maqsad shakllantirilib, “**Jamiyat — islohotlar tashabbuskori**” degan yangi tamoyil kundalik faoliyatning asosiga aylandi. Bugungi kunda mamlakatimizda **Yangi O'zbekiston taraqqiyot**

**strategiyasi** amalga oshirilmoqda. Ushbu Strategiyada yurtimizda yashayotgan har bir fuqaroning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini eng oliy qadriyat etib belgilandi. Ta'kidlash kerakki, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi milliy rivojlanishning yangi bosqichini boshlab berdi. Endilikda jamiyatimiz hayoti va davlatimiz faoliyati **"Inson – jamiyat – davlat"** degan yangi tamoyil asosida tashkil etilmoqda. Taraqqiyot strategiyasi doirasidagi yettita ustuvor yo'nalishning har biri bo'yicha amalga oshiriladigan eng muhim vazifalar inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini har tomonlama ta'minlashga, bir so'z bilan aytganda, **"Inson qadri uchun"** degan ustuvor tamoyilni to'la ro'yobga chiqarishga qaratilgan. O'zbekiston Prezidenti ta'kidlaganidek, "Inson qadri deganda, biz, avvalo, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta'minlashni nazarda tutamiz". Yana bir dasturiy hujjat – Prezidentimizning 2023-yil 11-sentyabrdagi Farmoni bilan tasdiqlangan **"O'zbekiston – 2030" strategiyasi** beshta ustuvor yo'nalish bo'yicha yuzta muhim maqsadni o'z ichiga qamrab olgan. Xususan, barqaror iqtisodiy o'sish orqali daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan o'rin olish, aholi talablariga va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish, aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish, xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish, mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta'minlash Strategiyaning asosiy g'oyalari. **"O'zbekiston-2030"** strategiyasida O'zbekistonning 7-yillik maqsadlari e'lon qilindi. Mamlakatimiz yaqin yillar ichida daromadi o'rtachadan yuqori davlatlar qatoriga kirish, xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini yaratish, xalq xizmatidagi adolatli davlat barpo etish yo'lidan dadil odimlamoqda.

O'zbekiston ko'plab xalqaro tashkilotlar va jahon davlatlari bilan keng ko'lamli hamkorlikni amalga oshirmoqda. Shu tariqa yurtimiz hayotbaxsh islohotlari, demokratik o'zgarishlar yo'lida sobitqadamligi, mustaqil ichki va tashqi siyosati bilan dunyo xalqlarining hurmat-e'tiboriga sazovor bo'lmoqda. Bu haqda fikr yuritganda, O'zbekistonning taraqqiyot, ma'rifat va bag'rikenglikni mustahkamlash yo'lidagi ilg'or tashabbuslari xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilayotganini ta'kidlash lozim. Bunga birgina misol: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti taklifiga ko'ra, 2018-yil 12-dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 73-sessiyasida "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" rezolyutsiyasi mazkur nufuzli xalqaro tashkilotga a'zo 193 mamlakat tomonidan yakdillik bilan qabul qilindi. O'z navbatida, BMT Bosh Assambleyasining 2022-yil 11-iyuldagi 76-sessiyasida qabul qilingan «Markaziy va Janubiy Osiyoda o'zaro bog'liqlikni mustahkamlash» nomli rezolyutsiyasi, ta'bir joiz bo'lsa, O'zbekiston Prezidentining mintaqalararo uzviy bog'liqlik konsepsiyasini amalga oshirish yo'lida qo'yilgan olamshumul qadamdir. Bu zalvorli qadam, albatta, xalqaro hamjamiyat Prezident Shavkat Mirziyoyev ilgari surgan ulkan birdamlik g'oyasiga uzoqni ko'ra bilish va to'g'ri prognoz qilish qobiliyatining hosilasi sifatida yuksak baho berganini anglatadi. Eng muhimi, xalqaro huquq, huquqiy madaniyat va milliy qadriyatlar haqida gap borganda, avvalo, ko'hna zaminimiz odamlari ko'nglida ustuvor bo'lgan adolat, haqiqat, imon, oliyjanoblik, bag'rikenglik, mardlik, tantilik kabi ulug' xislatlar Konstitutsiyamizdan munosib o'rin olganini alohida e'tirof etish lozim. Zotan, Asosiy qonunimiz xalqimizning irodasini, ruhiyatini, ijtimoiy ongi va madaniyatini o'zida yaqqol aks ettiradi. Xalqimiz 2023 yilgi referendumda ovoz bergan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini, uning Muqaddimasida ta'kidlanganidek, jumladan, **"Fuqarolarning munosib hayot kechirishini, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni, ko'p millatli jonajon O'zbekistonimizning farovonligini va gullab-yashnashini ta'minlashni maqsad qilgan holda"** qabul qilgan. Konstitutsiya – tarixda sinalgan umuminsoniy, umumbashariy qadriyatlarni o'zida mujassam

etgan hujjatdir. Chunki u Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining barcha asosiy g'oya va qoidalarini o'ziga singdirgan. Shu bois Asosiy qonunimiz umuminsoniy g'oyalari – tenglik, erkinlik, birodarlik, xalqlar va millatlararo do'stlik, mamlakat va dunyo barqarorligi kabi eng ulug' g'oyalarga xizmat qiladi.

**XULOSA.** Xulosa qilib aytganda, keyingi davrda har bir inson davlatimiz rahbarining **“Hech kim hech qachon unutmazligi kerak: qanchalik qiyin bo'lmasin, qancha mablag' va imkoniyat talab etilmasin, O'zbekistonning bironta fuqarosi o'z holiga tashlab qo'yilmaydi”** [3], degan qat'iy irodasi ijobatiga guvoh bo'lmoqda. Hayotimizning barcha jabhalarida, odamlar qalbida, ongu shuurida namoyon bo'layotgan mehr-oqibat, muruvvat, bag'rikenglik kabi fazilatlar va yurtdoshlarimizning ertangi kunga yuksak ishonchi buni to'la tasdiqlaydi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://lex.uz/docs/-3307879>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan 2017 yil 19 sentyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasi. <https://president.uz/oz/lists/view/1063>.
3. <https://parliament.gov.uz/news/yangi-ozbekiston-memori#!>